

## ISMAIL JURJANI'S CONTRIBUTIONS TO MEDICINE

**Boymirzayeva Khurshida Sobirovna**

Faculty of the Department of social and humanitarian Sciences of  
Samarkand State Medical University

### ANNOTATION

Ismail al-Jurjani was considered a great scientist and one of the most famous doctors of his time. In his time, he received the title of "the second Bukrat", i.e. Hippocrates. Although Ismail Jurjani was born in the city of Jurjan in 1042, he was honored as Zayniddin Abul Fazayil Ismail ibn Husayn al-Jurjani al-Khorazmi because he spent most of his life in Khorezm. During his time, Jurjani deeply studied the works of Galen, Hippocrates, representatives of ancient Greek medicine, as well as Abu Bakr Razi, who passed before him, and especially Ibn Sina. Ismail Jurjani finished writing his largest work on medicine "Zahiraye Khorazmshahi" in 1110 and dedicated it to Khorazmshah Qutbiddin. In the work, the author describes all important issues, starting from human anatomy and physiology, to the identification (diagnosis) and treatment of diseases.

**Keywords:** "the second Bukrat", Hippocratic title, "Ma'mun Academy", "Tatima sifon al-hikma", "Zahiraye Khorazmshahi" client (temperament), "Mujam ul-buddon

Xorazm Ma'mun ibn Ma'mun shohlik qilgan davrda (XI asr boshi) ayniqsa ravnaq topdi. Bu shohning o'zi bilimdon va o'qimishli kishi edi. Shuning uchun u ilm-fanning qadriga yetar va fan ahllarini har tomonlama qo'llab - quvvatlardi. Uning saroyida o'nlab olimlar, faylasuflar, san'at namoyandalari, shoirlar va hakimlar yashagan.

Xorazm olimlari o'sha davrdagi fanni yuksak darajaga ko'tardilar, uni yangi kashfiyotlar bilan boyitdilar. Bunday umumiy yuksalish jarayonida tibbiyot ham rivojlandi. Chuqur bilimli va yaxshi tajribaga ega bo'lgan hakimlar yetishib chiqdilar. Boshqa mamlakatlardan ham taniqli hakimlar kelib, Xorazm shaharlarida xizmat qildilar. "Ma'mun akademiyasi" tarkibida o'sha vaqtda ma'lum bo'lgan fanlarning deyarli hamma sohalari bo'yicha yirik mutaxassislar bo'lgan. Shular qatorida mashhur hakimlar ham bor edi. Bizga shulardan Abu Ali ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abu Abdulloh Iloqiy, Abu Mansur Qamariy, Abul Hayr Hammor ma'lum.

O'sha vaqtda Xorazmda yuqorida nomlari keltirilgan hakimlardan tashqari boshqa mashhur hakimlar ham xizmat qilganlar. Bizga shulardan Ismoil Jurjoniy va Umar Chag'miniy ma'lum.

Ismoil al-Jurjoniy ulug' olim va zamonasining eng mashhur tabiblaridan biri hisoblanar edi. U o'z davrida xalq orasida "ikkinchi buqrot," ya'ni Gippokrat unvonini olgan.

Ismoil Jurjoniy 1042-yilda Jurjon shahrida tugʻilgan boʻlsa ham, umrining koʻp qismini Xorazmda oʻtkazganligidan Zayniddin Abul Fazoyil Ismoil ibn Husayn al-Jurjoniy al-Xorazmiy deb ulugʻlanar edi.

Jurjoniy Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad ibn Anushtagin (1097-1127) va uning oʻgʻli Alouddavla Otsiz (1127-1156) saroyida xizmat qildi. Jurjoniy oʻz davrida qadimgi yunon tabobati vakillari Galen, Gippokrat, shuningdek, oʻzidan oldin oʻtgan Abu Bakr Roziy va ayniqsa, ibn Sino asarlarini chuqur oʻrgandi.

XII asrning mashhur tarixchisi Zahiridsin Abul Hasan Bayhaqiy oʻzining “Tatima sifon al-hikma” (“Donolik xazinasiga qoʻshimcha”) asarida Ismoil Jurjoniy haqida shunday yozadi: *“Men u kishini 531 hijriy (1136 milodiy) yilda Saraxsda keksalik chogʻlarida koʻrgan edim. Yer yuzining adolatpesha hukmdori Xorazmshoh Otsiz ibn Muhammad uni bir necha muddatga Xorazmga taklif etgan edi. Xorazmda boʻlgan vaqtida u “Al-Xuffayi al-aʻloiy” (“Poyalarning yuqori qismi”), “At-Tibb al-mulukiy”, “Kitob az-zahiraye Xorazmshohiy”, “Kitob al-ahrod” (“Hasad tufayli kelib chiqadigan kasalliklar”), “Kitob yodgor” (“Esdalik kitobi”), “Kitob fi rad alal falsafa” (“Faylasuflarga qarshi raddiya kitobi”), qozi Abu Said Shoriʻyga bagʻishlab “Kitob tadbir yaum va laylat” (“Kecha bilan kunduzning almashinishi haqida kitob”), “Kitob vasiyatnoma” va boshqa tabobat hamda falsafaga doir asarlar yozdi. Uning yozgan asarlari sevib oʻqilganidan tez orada jahonga mashhur boʻldi. Muhtaram kishilardan eshitishimcha, u kishi ochiq chehrali, xushmuomala, tabiatan saxovatli shaxs ekanlar”* (172-bet).

Tabobat ilmidan tashqari boshqa ilm sohalarida ham mashhur boʻlganligidan unga oyiga ming dinordan maosh tayin qilingan edi. Ismoil Jurjoniy oʻzining tabobatga bagʻishlangan eng yirik asari “Zahiraye Xorazmshohiy”ni 1110-yilda yozib tugatdi va uni Xorazmshoh Qutbiddinga bagʻishladi. Otsizning buyrugʻiga koʻra, bu asarning qisqartirilgan nusxasini 1113-yilda “Al-Xuffayi al-Aʻloiy” nomi bilan yozib tugatdi. Asar hammaga tushunarli fors tilida yozilgan boʻlib, harbiy yurishlar va sayohatlarda ham har kim etigi qoʻnjiga solib yurishiga (etigxuff) qulaylik yaratish maqsadida shunday qilindi.

“Zahiraye Xorazmshohiy” 600 sahifadan oshiq katta ilmiy asardir. Asarda muallif odam anatomiyasidan va fiziologiyasidan boshlab, kasalliklarni aniqlash (tashxis qoʻyish) va ularni davolashgacha barcha muhim masalalarni bayon etgan.

“Zahiraye Xorazmshohiy” oʻn kitobdan iborat boʻlib, keyinchalik unga “Dorisoqlikka oid kitob” (“Qorabodin”) qoʻshildi.

Birinchi kitob umumiy nazariy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, unda tabiat va koinot haqidagi qarashlar bayon etiladi. Inson organizmining birlamchi a'zolarini tashkil etgan unsurlar, mijoz, to'rt suyuqlik, badanning har bir qismining nimalarga qodirligi haqidagi ta'limot va shu munosabat bilan tabobatning fan sifatidagi vazifalari haqida gapiriladi.

Ikkinchi kitobda sog'liq va kasalliklar haqidagi ta'limot, ularning turlari, namoyon bo'lish belgilari, tomir urishiga qarab kasallikni aniqlash to'g'risida so'z yuritiladi.

Uchinchi kitob sog'liqni saqlash, bunda atrof-muhitning ta'siriga, ya'ni havo, maskan, suv, oziq-ovqat, ichimlik, uyqu, bedorlik, harakat va osoyishtalikka bag'ishlangan. Bu kitobda bolalar, qari-yalar, safardagilar uchun alohida-alohida qoidalar bayon etilgan.

To'rtinchi kitobda kasallikni kandy kechishi mumkinligini belgilash, qaysi paytlarda eng og'ir holatlarga tushib qolish, ulardan qutulish muammolari haqida gap boradi.

Beshinchi kitobda bezgak kasalining paydo bo'lish sabablari, uning belgilari, davolash tarzi bayon etilgan.

Oltinchi kitobda inson a'zoyi badanining har xil joylarida paydo bo'ladigan kasalliklar, ularni davolash usullari tahlil etilgan.

Yettinchi kitob rak kasalliklariga, yaralar, shishlar, suyak chiqishlari va sinishlariga bag'ishlangan.

Sakkizinchi kitobda pardoz-andozlar, o'ziga oro berishlar xa-qida gap boradi.

To'qqizinchi kitobda zaharlar va unga qarshi davolash usullari haqida hikoya qilinadi.

O'ninchi kitob davosizlikka bag'ishlangan. "Zahiraye Xorazmshohiy" o'z vaqtida omma orasida keng tarqalgan tabobat sohasidagi eng mashhur asar bo'lganligidan jahon kutubxonalarining ko'pchiligida uning qo'lyozmalari hamon saqlanib kelinmoqda. XII asr muallifi vatandoshimiz Aruziy Samarqandiy bu asarni buyuk olimlar Jolinus, Roziy, ibn Sino va boshqalarning shu sohadagi kitoblari qatoriga

qo‘ygan. Bu asar hatto yahudiy tiliga tarjima qilingan edi. XVI asrda esa Abul Fadl Muhammad ibn Idris Daftariy uni turk tiliga tarjima qilgan.

Ma‘lumki, Sharq olimlarigina emas, balki XVIII asr oxirigacha yashagan Ovro‘po olimlari ham barcha borliqning asosida to‘rt unsur, ya‘ni tuproq, suv, havo va olov yotadi deb bilishgan. Ismoil Jurjoniyy ham inson tanasi mazkur to‘rt unsurdan tashkil topganini, u sababsiz kasallikka chalinmasligini qayd etadi. Kasallik sababi esa, yuqorida zikr etilgan bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan to‘rt unsur muvozanatining buzilishidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham Jurjoniyy tabobatni malaka hosil qilish yo‘li bilan qo‘lga kiritiladigan fan deb hisoblaydi.

Ismoil Jurjoniyy fikricha, isbot va tafakkur vositasidagi narsa ilm deb ataladi. Ilm ham o‘z navbatida ikki xil bo‘ladi: nazariy va amaliy. Nazariy ilmlarga adabiyot, mantiq, riyoziyot kirsam, amaliy ilmlar o‘z ichiga mexanika, tikuvchilik va boshqa qo‘l ishlari, hunarmandchilikni qamrab oladi. “Tabobat ilmi esa, ayni holda ham nazariy va ham amaliy ilmlardan tashkil topadi”. Tabobat ilmidan kuzatilgan maqsad tanani butunligida – sog‘lomligida ushlab turishga tibbiy tadbirlar qo‘llash yo‘li bilan erishmoqdir. Bunday holat bemor kishilarning va ularni davolovchi tabiblarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi. Tabiblar esa, tabiatning barcha sir-u asroridan boxabar bo‘lishlari lozim.

Ma‘lumki, tabiatning eng buyuk mo‘jizasi – bu insondir. Shuning uchun ham bu mo‘jizaning nimadan tarkib topganini bilish – uni davolashning kalitidir.

Ismoil Jurjoniyy fikricha, hayvonot olamining ham o‘z mizoji bor, ammo insondagi mizojgina mo‘tadildir. Bunday natijaga Ovro‘po olimlari XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridagina erishdilar. Ular butun inson badanida bo‘ladigan kimyoviy jarayonlar, uning ona qornida paydo bo‘lishidan boshlangan o‘zgarishlar, tug‘ilgandan keyingi hayotiy yo‘li: chaqaloqligi, o‘spirinligi, yoshligi, keksaligi, qarilik va o‘lim bilan yakunlanadigan hayotiy bosqichlaridagi har bir hujayralarning paydo bo‘lishi, zavolga yuz tutishi, bir tomondan asab tizimining daholati sababli yuz bersa, ikkinchi tomondan, badan a‘zolariga ma‘lum mijoz (temperament)ga ega bo‘lgan garmonlarning aralashishi oqibatida yuz berishini aniqladilar. G‘ariza (instinkt) va hayajon, fe‘lu atvor va mizojlar garmonlar ta’siri vositasida namoyon bo‘ladi. Hozirgi paytda issiq, sovuq, nam va quruq mizojli insonlarning bo‘lishligi ishonchli dalillarga asoslangan ilmiy haqiqat sifatida tan olingan. Chunki ularning manbai asab tizimi, ichki garmonlar

amaliyotida ekanligi isbotlangan. Ismoil Jurjoniylar kishilar mizoji ularning umrlari davomida o'zgarib turishligini va o'limining tabiiyligini ilmiy jihatdan sodda va ravon tidda tushuntirdi. Insonlar umrini u to'rt davrga bo'ladi: Birinchi davr – tug'ilish, o'sish va parvarishlash bosqichi bo'lib, 15–16 yoshgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Ikkinchi davr – yoshlik va yetuklik bosqichi bo'lib, 30 yoshgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bundan keyin jismonan o'sish va ulg'ayish davri boshlanadi. Ba'zilar o'sish va ulg'ayish yoshi 35 yoki 40 yoshgacha ham davom etishi, shu yoshgacha bo'lgan umrni yoshlik davri deb hisoblash mumkin. Uchinchi davr – mo'ysafidlik bosqichi, bu davrda inson to 60 yoshga yetguncha yoshlik quvvatidan bahra olib yashashi mumkin bo'ladi. To'rtinchi davr – kishi umrining qarilik davri bo'lib, bunda quvvatning susayish holati kuzatiladi va bu jarayon umrning oxirigacha davom etadi. Qarilikning fazilati shundaki, bazilar 60 yosh yashaydi, ba'zilar esa yana o'spirinlik, yoshlik va mo'ysafidlik yillari qancha davom etgan bo'lsa, o'shanga teng keladigan vaqtgacha yashab, 120 yoshga kirishi mumkin.

Kishilar bolalik davrlaridan to yetuklik yoshiga yetgunlariga qadar issiq va nam mizojga, yetuklik yoshidan so'ng esa issiq va quruq mizojga ega bo'ladilar; 35 yoshdan keyin bunday holat kamayadi. Ismoil Jurjoniylarning koinot va inson haqidagi ilmiy mulo-hazalari voqelikdan olingan manbalar asosida shakllangan bo'lib, u insonning tabiiy ehtiyojlari cheksizligidan kelib chiqadi va ularni qondirishni aqliy yo'l bilan chegaralashni yagona chora sifatida targ'ib etadi. Uning fikricha, haqiqiy lazzat jismoniy huzur-halovatda, to'kin-sochin hayot kechirishda emas, balki aqliy va ma'naviy kamolotga erishishdadir. Narigi dunyodagi behisht, jannat huzur-halovatlarini ruhiy, aqliy orom olishlikda deb tushunadi. "Zahiraye Xorazmshohiy" asarini tugatgandan so'ng Jurjoniylar Marv shahriga keladi. Bu paytda Marv shahri Sulton Sanjarning poytaxti hisoblanar edi. Sulton Sanjar unga katta iltifot va izzat-ikrom qo'rsatganligi sababli Jurjoniylar umrining oxirigacha shu yerda yashadi. Bu yerda hadis ilmida Abul Qosim Qo'shayriylar bilan muloqatda bo'ldi, tabobat sohasida esa mashhur tabib ibn Abu Sodiqlar bilan hamkorlik qildi. Bundan tashkari Iroq, Fors va Xuziston tabiblari bilan, ibn Sinoning ba'zi shogardlari bilan hamsuhbat bo'ldi. Umrining oxirigacha Marv madrasalarida bir necha fanlardan dars berdi. Yoqut Hamaviylarning "Mujam ul-buddon" asarida keltirilishicha, Ismoil Jurjoniylar Marvda hijriy 531 (1136) yilda vafot etdi.

Xulosa, Qutbiddin Muhammad va Otsiz zamonlarida mashhur tibbiyot olimi Ismoil Jurjoniy faoliyat ko'rsatib, bir qator qimmatli asarlar yaratgan. Ular orasida Qutbiddin Muhammadga bag'ishlangan «Zahirayi Xorazmshohiy» asari alohida o'rin egallaydi. Bu asarning qimmatini shu qadar bo'lganki, Jolinus (Galen), Muhammad Zakariyo, Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy asarlari bilan bir qatorda tibbiyot sohasidagi eng muhim asar va manbalardan biri sifatida qabul qilingan. «Zahiraye Xorazmshohiy» o'n kitobdan iborat bo'lib bu asar tibbiyotning barcha yo'nalishlari, oddiy va murakkab dorilar haqidagi tadqiqotlarni o'z ichiga olgan. U arab va turk tillariga tarjima qilingan.

### Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ozod Masharipov, Alisher Masharipov. Xorazmnoma.– Toshkent: “Istiqlol nuri” nashriyoti, 2014
2. Ma'naviyat yulduzlari (To'plovchi va mas'ul muharrir M. Xayrullaev). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
3. Buyuk ajdodlarimiz (Mas'ul muharrir: M.Aminov, F.Xasanov). – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2000.

4.4.Z. Munavvarov va boshqalar. *Ренессанс олимлари комуси (o'zbekcha, inglizcha va arabcha)*, 2021-yil Махмудова, А.Н., Ибрагимова, Э.Ф., Шукурова, Д.Б., Абдурахмонова, З.Э. and Наимова, З.С., 2020. Медицина Узбекистана-достижения и перспективы развития сферы. *Достижения науки и образования*, (3 (57)), pp.49-52.

5. Махмудова, А.Н. and Махмудова, С., 2022. Гуманитаризация медицинского образования как фактор повышения качества обучения в вузе. *Science and Education*, 3(6), pp.709-718.

6. Махмудова, А.Н., 2022. Правовая защита пациентов в сфере здравоохранения в новом Узбекистане. *Academic research in educational sciences*, (Conference), pp.102-107.

7. Махмудова, А.Н., Афанасьева, О.Г. and Камариддинзода, А.К., 2022. ФОРМИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МИРОВОЗРЕНИЯ И ЦЕННОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ВУЗА. *ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*, (SI-2).

8. Nugmanovna, M.A. and Kamariddinovna, K.A., 2021, January. Modern biotechnical problems of medicine and their solutions. In *Archive of Conferences* (Vol. 13, No. 1, pp. 169-173).

9. Nugmanovna, M.A., 2022. BIOETHICS AS A FORM OF PROTECTION OF INDIVIDUALITY AND PERSONALIZED MEDICINE. *Thematics Journal of Social Sciences*, 8(4).

10. Nugmanovna, M.A., 2022. BIOETIKA ZAMONAVIY MADANIYATDA INDIVIDUALLIKNI HIMOYA QILISH SHAKLI SIFATIDA. *ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ*, (SI-2)

11. Арзуова Ш. А., Маденова Э. Н. Стратегическое управление промышленным предприятием регионального производственного кластера // Принципы и технологии экологизации производства в сельском, лесном и рыбном хозяйстве. – 2017. – С. 203-208.

12. Арзуова Ш. А. Роль экономики и развития электронной коммерции в коммерческих банках Узбекистана. IX Global science and innovations 2020: SENTRAL ASIA // IX Global science and innovations. – 2020. – С. 37-42.